

**QORAQALPOQ SUR QO‘YLARINI DIFFERENSIYALANGAN
JUFTLASHDAN OLINGAN AVLODLARNING JUN-TOLA SIFATI**

Z.A.Seytmusayeva-q.x.f.d.(PhD), assistent¹,

A.Gaziyev-q.x.f.d., professor, bo‘lim mudiri²

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali¹
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti²*

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq sur qo‘ylarini rangbarangligi bo‘yicha juftlashdan olingan avlodlarda jun-tola sifatini baholash natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qorako‘l qo‘yi, qoraqalpoq suri, avlod, seleksiya, juftlash, rangbaranglik, jun-tola sifati

Summary. The article presents the results of assessing the quality of the hair coat of the offspring obtained from crossing Karakalpak Sur sheep, according to color variations.

Key words: karakalpak sheep, karakalpak Sur, offspring, selection, crossing, color variations, hair coat quality

Kirish. Qorako‘l qo‘ylarining naslini terilarining tovar qimmatligini baholashda rang, rangbarangliklar, gul tiplari va shakllari, uzunligi, kengligi, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda jun tolalarining ipaksimonligi, yaltiroqligi, pigmentlanish darajalari ham e‘tiborga olinadigan muhim seleksion belgilar qatoriga kiradi.

Jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi qorako‘l terilarining sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etuvchi xususiyatlar hisoblanib, ularning yorqin namoyon bo‘lishi qorako‘l mahsuloti sifatini oshiradi.

Tadqiqotlarda aniqlanganki, jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi tolalar shox qatlamining tuzilishi gullarda, qiltiq va tivit tolalarining nisbatiga bog‘liq. Agar ushbu qatlam silliq bo‘lsa, tolada yorug‘likning qaytishi, shunga mos ravishda yaltiroqlik kuchayadi.

Ko‘pchilik olimlar ushbu ko‘rsatkichlarning barra teri xususiyatlariga, ya‘ni gullarning tipiga, rangbarangliklarga bog‘liqligini ta‘kidlaydilar.

Jun-tola qalinligining oshishi qoraqalpoq surining (po‘lati va o‘rikgul) eng keng tarqalgan rangbarangliklarida distal uchidan 2,5-3 mm gacha bo‘lgan segmentda sodir bo‘ladi. Shundan so‘ng egri chiziqlar platoga yetib boradi. Tola qalinligi platoga yetgandan so‘ng, tolalarning optik zichligi (ya‘ni pigmentatsiya) tola diametrining biroz kamayishi fonida ham tolalarning distal uchidan 4-6 mm gacha o‘sishda davom etadi [1].

Qoraqalpoq sur qo‘ylarini turli variantda juftlashda avlodlarda jun-tola qoplami va gul uzunligida sezilarli o‘zgaruvchanlik ro‘y beradi. Ushbu holatda yaxshi natijalar jun-tola uzunligi bo‘yicha “shamchiroq x shamchiroq”, gul uzunligi bo‘yicha “shamchiroq x shamchiroq”, “po‘lati x qamar” va “o‘rikgul x qamar” juftlash variantlarida kuzatiladi [3].

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Taxtakopir tumani “Qorako‘lchilik ilmiy-naslchilik tajriba stansiyasi” da urchitiluvchi turli rangbaranglikdagi va gul tiplaridagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarida olib borilgan.

Tadqiqotlar uchun shamchiroqgul (180 bosh), po‘lati (120 bosh), o‘rikgul (100 bosh) va qamar (65 bosh) rangbarangliklaridagi qo‘ylar shamchiroqgul, po‘lati va o‘rikgul rangbarangliklaridagi qo‘chqorlar hamda yarim doira qalamgul (85 bosh), qovurg‘asimon (87 bosh), yassi (83 bosh) va o‘sikgul (86 bosh) tiplaridagi jami 341 bosh qo‘ylar guruhlari shakllantirilib, ularni rangbarangligi bo‘yicha differensiyalangan va gul tipi bo‘yicha gomogen va geterogen juftlash ishlari amalga oshirildi, olingan avlodlarni muhim seleksion belgilar bo‘yicha baholash “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma (2015-yil) talablari asosida amalga oshirildi [4].

Olingan ma‘lumotlarga variatsion statistika usullarida [3] o‘rtacha ko‘rsatkich (X), o‘rtacha ko‘rsatkich xatosi (Sx), o‘zgaruvchanlik koeffitsiyentini (Cv) aniqlash yo‘li bilan matematik ishlov berildi.

Tadqiqot natijalari. Qayd etilganlar nuqtai nazaridan tadqiqotlar davomida qo‘ylarni rangbarangliklar bo‘yicha differensiyallashtirib juftlash sharoitida avlodlarda qayd etilgan ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish darajalari o‘rganildi (1-jadval, 1-rasm).


1-jadval

Avlodlarning jun-tola sifati bo‘yicha taqsimlanishi

t/r	Juftlash		Olingan avlod	Shundan, % (X±Sx)		
	♂	♀		5	4	3
I	Sur shamchiroq	Sur shamchiroq	60	51,7±6,44	48,3±6,44	
	Sur po‘lati	Sur shamchiroq	60	30,0±5,91 ^x	63,3±6,22	6,7±3,22
	Sur o‘rikgul	Sur shamchiroq	60	40,0±6,32	48,3±6,44	11,7±41,4
II	Sur shamchiroq	Sur po‘lati	61	23,0±5,38	41,0±6,29	36,0±6,14 ^{x)}
	Sur po‘lati	Sur po‘lati	59	47,5±6,49 ^x	47,5±6,49	5,0±2,82
III	Sur shamchiroq	Sur o‘rikgul	30	23,3±7,71 ^{x)}	60,0±8,94	16,7±6,80
	Sur po‘lati	Sur o‘rikgul	30	40,0±8,94	40,0±8,94	20,0±7,30
	Sur o‘rikgul	Sur o‘rikgul	40	62,5±7,65	37,5±7,65 ^x	-
IV	Sur shamchiroq	Qamar	25	16,0±7,33	72,0±8,97	12,0±6,49
	Sur po‘lati	Qamar	20	20,0±8,94	65,0±10,6	15,0±7,98
	Sur o‘rikgul	Qamar	20	20,0±8,94	70,0±10,2	10,0±6,70

X-P<0,05; X-P<0,001

Ko‘pchilik tadqiqotlarda ushbu ko‘rsatkichlar orasida funksional bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan, ya‘ni ularning bittasini aniqlash asosida ikkinchisiga ham aniq baho berish mumkin. Shu nuqtai nazardan ularni baholashda ball tizimidan foydalanildi, ya‘ni 5 ball-kuchli, 4 ball o‘rta, 3 ball kuchsiz ipaksimonlik va yaltiroqlikni bildiradi.



4.3.1-rasm. Avlodlarning jun tola sifati bo'yicha taqsimlanishi

Olingan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, qo'ylarni rangbaranglik bo'yicha differensiyallashgan tarzda juftlash asosida samarali variantlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Ushbu holatda avlodlarda jun tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqligini oshirish uchun "Sur shamchiroq x sur shamchiroq" ($51,7 \pm 6,44\%$), "Sur o'rikgul x sur shamchiroq" ($40,0 \pm 6,32\%$), Sur po'lati x sur po'lati" ($47,5 \pm 6,49\%$), "sur po'lati x sur o'rikgul" ($40,0 \pm 8,94\%$) va "sur o'rikgul x sur o'rikgul" ($62,5 \pm 7,65\%$) variantlaridan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

Barcha juftlash variantlari miqyosida jun tolalarining o'rta ko'rsatkichi bilan tavsiflanuvchi avlodlar salmog'i 37,5-72,0 foiz darajalarida qayd etilib, bu yerda deyarli barcha variantlardan istiqbolli, samarali usullar sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi

Xulosa. Qo'ylarni rangbarangligi bo'yicha differensiyatsiyalangan variantlarda juftlash, ularning nasl imkoniyatlarini kuchliroq va aniqroq ochish imkonini beradi. Bunda ma'lum rangbaranglikdagi qo'chqorlar bilan qaysi rangbaranglikdagi qo'ylarni juftlashda muhim seleksion belgilar namoyon bo'lishining kuchayishi aniq ko'rinadi va bundan seleksion va urchitishning samarali usullari sifatida foydalanish yo'nalishlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Очилов К., Всеволодов Э.Б. Связь масти каракульских ягнят с динамикой нарастания толщины волос // Zooveterinariya jurnali. - Toshkent, 2017. - №9 (118). - Б. 35-36.

2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников // - Москва, 1969. - С. 256.

3. Уримбетов А.А. Қорақалпоқ сур қоракўл қўйларида жун-тола қоплами ва гул узунлигининг ўзгарувчанлик хусусиятлари // Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. - Toshkent, 2023. - №1. - Б. 16-17.

4. Юсупов С.Ю. ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма // - Toshkent, 2015. - Б. 31.

UDK: 636.32/.38.081

TURLI GUL TIPI VA SINFDAGI QORAKO'L QO'ZILARINING JUN-TOLA QOPLAMI PIGMENTATSIYASI VA GUL MUSTAHKAMLIGI

L.E.Shaptakova-tayanch doktorant,
A.Gaziyev-bo'lim mudiri, q.x.f.d., professor

Annotatsiya.: Maqolada "Muborak" zavod tipiga mansub bo'lgan qora rangli qorako'l qo'ylari avlodlarining jun-tola qoplami pigmentatsiyasi va gul mustahkamligini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qorako'l qo'ylari, qo'zilar, zavod tipi, sinf, pigmentatsiya, gul mustahkamligi.

M U N D A R I J A

1	Shaptakov E.S., Xatamov A.X. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida erishilgan ilmiy natijalar	3
2	Шаптаков Э.С., Хатамов А.Х., Ахмадалиева Л.Х., Кличев З.С. Изобретательская деятельность в НИИ каракулеводства и экологии пустынь, посвященная 95 летнему юбилею института	6
I. CHO‘L CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SELEKSION VA GENETIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
3	Shaptakov E.S., Yarmanov M.S. Sur rangli avlodlarning pigmentlanish darajasini gul tiplariga bog‘liqligi	10
4	Xatamov A.X., Gaziyeu A. Ekstremal cho‘l sharoitlarida urchitiluvchi qorako‘l qo‘ylarini urchitishda gul rasmining aniqligi bo‘yicha seleksiyalash samaradorligi	12
5	Газиев А., Хатамов А.Х., Маматов Б.С., Фазилов У.Т. Турли экологик шароитда қоракўл қўйлари селекция белгиларининг ўзгарувчанлиги	15
6	Арипов У., Имомов Х., Турсунов Ж. Жизнеспособность каракульских овец, мониторинг биопродуктивных признаков и улучшение качества каракуля	21
7	Уримбетов А.А., Газиев А. Особенности проявления селекционных признаков у ягнят сур каракалпакского породного типа	27
8	Уримбетов А.А., Газиев А. Совершенствование методов селекции каракульских овец каракалпакского сура разных этологических типов	30
9	Фазилов У.Т., Газиев А., Туранов М. Музей коллекции оригинальных каракульских шкурок уникального научного объекта	34
10	Imomov X.N., Aripov U.X. Turli genotipli avlodlar gullarining rasmi va mustahkamligi	39
11	Seytmusayeva Z.A., Gaziyeu A. Qoraqalpoq sur qo‘ylarini differensiyalangan juftlashdan olingan avlodlarning jun-tola sifati	43
12	Shaptakova L.E., Gaziyeu A. Turli gul tipi va sinfdagi qorako‘l qo‘zilarining jun-tola qoplami pigmentatsiyasi va gul mustahkamligi	46
13	Norboyeva G.S., Gaziyeu A. Gullarning joylashish rasmiga bog‘liq holda qora qorako‘l qo‘zilarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari	49
14	Mamatov B.S. Rangbarangliklar bo‘yicha juftlashdan olingan avlodlarda gul o‘lchami ko‘rsatkichlari	52
15	Turanov M.H. Buxoro suriga mansub olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda belgilarning o‘zgaruvchanligi	55